

## O'QUVCHILARNI PSIXIK RIVOJLANISHIDA O'YIN TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11059567>

**Rasulova Dilrabo Raxmatullayevna**

*JDCU, Pedagogika ta'limi nazariyasi katta o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

*Bolaning har tomonlama rivojlanishida o'yin asosiy faoliyat turi bo'lib hisoblanadi. Bola yoshligida qanchalik ko'p o'ynasa, bu uning maktabda yaxshi o'qishiga va keyinchalik mehnat faoliyatiga ijobiy tasir ko'rsatadi.*

*O'yin -bu bola faoliyatining yorqin turi, o'yin jarayonida uning irodasi, hissiyoti, ehtiyoji, qiziqishlari, tasirchanligi, yani butun shaxsiyati shakllanadi.*

### **Kalit so'zlar**

*Tarbiya, o'yin texnologiyalari, shaxs, jismoniy kamolot, axloqiy his-tuyg'ular, axloqiy madaniyat, ma'naviy dunyoqarash.*

## МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УМСТВЕННОМ РАЗВИТИИ ОБУЧАЮЩИХСЯ

**Расулова Дилрабо Рахматуллаевна**

*ЖДПУ, старший преподаватель кафедры теории педагогического образования*

### **Аннотация**

*Игра является основным видом деятельности во всестороннем развитии ребенка. Чем больше ребенок играет в раннем возрасте, тем лучше он будет в школе, а затем и на работе.*

*Игра – яркий вид деятельности ребенка, в процессе игры формируется его воля, чувства, потребности, интересы, впечатлительность, то есть вся его личность.*

### **Ключевые слова**

*Образование, игровые технологии, личность, физическая зрелость, нравственные чувства, нравственная культура, духовное мировоззрение.*

## METHODS OF USING GAME TECHNOLOGIES IN MENTAL DEVELOPMENT OF STUDENTS

**Rasulova Dilrabo Raxmatullayevna**

JDPU, Senior Lecturer of Pedagogical Education Theory

### **Annotatsion**

*The game is the main type of activity in the all-round development of the child. The more a child plays at a young age, the better it will be at school and later on at work.*

*Play is a bright type of child's activity, in the process of playing, his will, feelings, needs, interests, impressionability, that is, his whole personality is formed.*

### **Key words**

*Education, game technologies, personality, physical maturity, moral feelings, moral culture, spiritual outlook.*

**Kirish.** Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham davr talabiga munosib bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash muammosi hamisha dolzarb ahamiyatga molik bo'lib kelgan.

Tarbiya – bu shaxsning ijtimoiy ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tarbiyalash maqsadida uning manaviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda tasir ko'rsatish jarayonidir. Tarbiya tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchida barqaror ahloqiy xislat va xulqiy fazilatlarni tarkib toptirish, shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchining ongiga aniq maqsad yo'lida tarbiyaviy ta'sir etish jarayonidir.

Tarbiya – bolaning ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishni o'rganishi hamda insonning hayotiy ko'nikma va malakalariga ega bo'lishidir. Ta'lim jarayonining markazida shaxsning bilish va anglash jarayoni uning qobiliyati ilm o'rganishi yotsa undan farqli ularoq tarbiya insonni shaxs sifatida shakllanishiga, uning dunyo qarashi va jamiyatga munosabatiga qaratiladi. Tarbiya bu alohida jarayon emas, balki o'qitishning bir tomoni bo'lib u bilan umumiy va farqli tomonlarga egadir. Tarbiya jarayonida shaxsning sifat va xossasi, ijtimoiy fe'l atvori va shakllari nazarda tutilsa, o'qitishda bilim, ko'nikma va malakalar inobatga olinadi.

Tarbiyaning bosh vazifasi jamiyat hayotida zarur bo'gan kerakli sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Abu nasr Farobiy asarlarida bolalarni axloqli, nazokatli qilib tarbiyalash haqida aytib o'tadi. Farobiy o'zining "Iso – al –ulum" kitobining oxirgi bo'limida "Inson aqli faqat bilim bilan cheklanmaydi, balki odat va qarashlarni o'zining maqsadlariga bo'ysundira olishi va yo'naltirishi, o'zgartirishi ham mumkun," – deb yozadi. Uning fikricha har bir kishi bilimlarni yaxshi egallamog'i, yaxshi va barkamol tarbiya olmog'i, eng yaxshi fazilatga ega bo'lmog'i kerak. Farobiyning fikricha, kishidagi tub g'oya – saodatdir. Tarbiya vositasi bilan bolalarda hosil qilinadigan barcha insoniy, ahloqiy fazilatlar shunga qaratilmog'i kerak.

Bundan tashqari inson shaxsining tarkib topishiga tasir qiluvchi yana bir kuchli omil- inson ortttirgan tajribalarining tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Tarbiyali bo'lish- by xulq atvorni nazorat qilishdan iboratdir. Bunday nazorat insonga yomon hatti harakatlarni bajarmaslik imkonyatini beradi. Agar shaxs xulq atvorini axloqiyligi haqida qayg'ursa u ijtimoiylashuviga erishgan bo'ladi. Tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoy jihatdan ijobiy ehtiyojlarini hosil qilishidir. Agar ta'lim shaxsning ongini shakllantirish bo'lsa tarbiya uning ongsizlik sohasiga tasir etishdir.

Bolani tarbiyalash samaradorligini oshirishda an'ana va urf odatlarning o'rni katta. Ular odamlarni bir biriga yaqinlashtiradi. Do'stlik his tuyg'ularini rivojlantiradi. Bular o'z navbatida yoshlar uchun ibrat namunasini o'taydi. Tarbiya jarayonini amal oshirishda g'amxo'rlik bilan bir qatorda yaxshi ko'rishga asoslangan intozomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy muloqatni, tushuntirishni, muhokama qilishni, agar bolani xulq atvori shuni talab qilsa, og'zaki tanbeh berishni, yaxshi xulq atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi.

Bolaning har tomonlama rivojlanishida o'yin asosiy faoliyat turi bo'lib hisoblanadi. Bola yoshligida qanchalik ko'p o'ynasa, bu uning maktabda yaxshi o'qishiga va keyinchalik mehnat faoliyatiga ijobiy tasir ko'rsatadi.

O'yin -bu bola faoliyatining yorqin turi, o'yin jarayonida uning irodasi, hissiyoti, ehtiyoji, qiziqishlari, tasirchanligi, yani butun shaxsiyati shakllanadi.

Bola o'yin jarayonida amaliy ehtiyojlarga qaram bo'lmaydi. U bolaning o'z ichki ehtiyoji va qiziqishlaridan kelib chiqadi.

Masaru Ibukani takitlashicha „Bola oddiy narsadan turli xil o'yinlar o'ylab topib, hammadan ko'ra yaxshiroq o'ynaydi. Uning hayolida yog'och bo'lagi, yoki choynakning singan qopqog'i ertakdagi uy yoki mo'jazgina ko'lcha qiyofasida aks etishi mumkin.“

Qadimgi o'zbek xalqi bolalarni tarbiyalashda an'anaviy o'yin turlaridan, tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalangan. O'g'il bolalar uddaburon, chaqqon, topqir, qizlar mehr-shavqatli, uy ishlariga kirishimli qilib tarbiyalangan. Ularni kelajakda hayot sinovlariga tayyorlab borishga katta etibor qaratilgan. Bunday jarayonlarda ota onaning shaxsiy namuna bo'lishi, mehnatga qiziqtirish va o'rgatish kabi tarbiya shakllaridan unumli foydalanilgan.

Chaqaloqlik davrida bola chalqancha yonboshlab qorin bilan yotganda hamma buyumlarni kuzatishga jalb etish kerak. Bolada ko'rgazmali idrokni rivojlantirish, ko'rgan buyumiga intilish, uni ushlab olish, qo'ldan chiqarmaslik

kabi ko'nikmalarni shakllantirish lozim. Bolaning qo'l harakatlariga ko'maklashish, ularning buyumlarini to'g'ri ushlagan yordam berishi kerak.

O'yin orqali bolada quyidagilarni shakllantirishga harakat qilish lozim.

-buyumlarni bir biridan farqlash,

-bir nechta harakatli o'yinlarni bajara olish,

-o'yinchoqlarni tanlay olish.

Bola chaqaloqlik davridan boshlab belanchagiga osilgan o'yinchoqlarni uzoq vaqt kuzatib yotib, uxlab qolmaslika harakat qiladi. Farzandingiz qo'llarini ko'zlari oldiga o'ynatib, tomosho qiladi, ko'z va qo'lning o'zaro koordinatsiyalashga o'rgana boshlaydi, 4 oylik bo'lganda u turli narsalarga intiladi. Uning aqliy va jismoniy rivojlanishida kattalarning e'tibori muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun butun oila jam bo'lib o'tirganda ham asosiy e'tiborni unga qaratish zarur. Muloqot jarayonida bolada tovushga nisbatan ovoz chiqarib javob qaytarish ko'nikmasini hosil qilishga harakat qilish lozim.

Bolaga ko'proq o'yinchoqlar berish va ular bilan asta sekin tanishtira borish kerak. Bu esa bolani o'z o'yinchoqlari va buyumlarini o'zaro farqlash va nomini bilishga undaydi.

"Bola tarbiyasi ona uchun eng muhim ishdur va unda oson yo'llar bo'lmaydi. Onalar tarbiyaga keng tarqalgan oqimlar, qoliblar va yengillashtirilgan uslublardan holi, o'zlarining shaxsiy ishlarini ishlab chiqishlari kerak" -deydi Masaru Ibuka .

Bolalar o'yinlarida chuqur mano yotadi. Agar siz bolangiz sho'xliklariga yo'l bermasangiz, unda hech qachon donishmandlarni voyaga yetkiza olmaysiz.

Ebner Eshenbax shunday deydi-"O'z bolaligini unutmagan tarbiyachi yomon tarbiyachidir."

Bolalar hamisha nima bilandir bajonidil band bo'ladilar, bu juda foydali, shuning uchun unga halaqit berish emas, aksincha, ularning doimo biror bir ish bilan mashg'ul bo'lishlarining chora tadbirlarini ko'rish kerak.

Yuqorida ko'rib chiqilgan o'yinlar orqali bolalik davridan o'n yoshgacha bo'lgan bolalarda bir qator jismoniy harakat sifatlari tarbiyalanadi, ayniqsa, milliy harakatli o'yinlarni o'rgatib borib, o'zbek xalqining azal azaldan saqlanib kelayotgan urf odatlari, manaviy qadriyatlarini bolalar ruhiyatiga singdiriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Turg'unov S.T. va boshqalar. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: "Sano-Standart", 2012 - 100 b.

2. Turg'unov S.T., Axmadjonova N.M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyati algoritmi. // Xalq ta'limi. -Toshkent, 2012 - №1. - B. 133-134
3. Jumaboyev M "O'zbek bolalar adabiyoti", Toshkent "O'zbekiston" 2012 y, 21b.
4. Maxmudov Y.F, Xudoyqulov X.J. "Milliy g'urur-ma'naviy komillik mezoni".T, Dizayn-Press 2011.327b.
5. Rahimova R. "Tarbiyachiga 1001 maslahat" ., Toshkent.,2007 yil.
6. Sodiqova Sh. "Maktabgacha pedagogika" Toshkentyuyu., 2013 yil
7. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova .maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent, O'zPFITI nashriyoti - 2015 yil
8. Mavlonova R., B. [Normurodova](#), N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi.- T.:"Tib-kitob", 2010.
9. Sodiqova Sh. A Maktabgacha pedagogika T. : Tafakkur bo'stoni. 2019